



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT
O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**"O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI:
MUAMMO VA VAZIFALAR"**

**mavzusidagi
xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya
materiallari
(2022-yil 31-may)**



O'zbek tilining milliy korpusi: muammo va vazifalar / Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami. Elektron nashr / ebook. – Toshkent: ToshDO'TAU, 31.05.2022. – 356 b.

Mazkur to'plamdan korpus lingvistikasi sohasiga doir tadqiqot natijalari, filologik dasturiy ta'minotlar, ularning imkoniyatlari va afzalliliklari, tabiiy tilni qayta ishlashga oid masalalar, semantik tizim bazalari, til va adabiy korpuslar, lingvistik ta'minot manbalari, mashina tarjimasida lingvistik muammolar, lingvodidaktik dasturlar va platformalar, terminologik lug'atlarni yaratish masalalariga oid materiallar joy olgan.

Ushbu ilmiy to'plamdan korpus lingvistikasi sohasi vakillari, tadqiqotchilar, mustaqil izlanuvchilar, magistrantlar va kelajak sohalariga qiziquvchi talabalar foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir:

B.Mengliyev – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasи mudiri, filologiya fanlari doktori, professor.

Taqrizchilar:

Sh.Shaxobiddinova – Andijon davlat universiteti professori, filologiya fanlari doktori.

Sh.Hamroyeva – Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti Amaliy filologiya kafedrasи dotsenti v.b., filologiya fanlari doktori.

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**
**ALISHER NAVOIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT O'ZBEK
TILI VA ADABIYOTI UNIVERSITETI**

**O'ZBEK TILINING MILLIY KORPUSI: MUAMMO VA
VAZIFALAR**

mavzusidagi xalqaro ilmiy-amaliy konfrensiya
materiallari

2022-yil 31-may

Toshkent – 2022



TASHKILIY QO‘MITA

Sirojiddinov Shuhrat Samariddinovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Hamroyev G‘ofir Hasanovich (O‘zR Vazirlar Mahkamasining Ma’naviyat va davlat tili masalalarini rivojlantirish departamenti)

Jamoliddinova Odinaxon Rustamovna (O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi)

Eshref Adali (Turkiya, Istanbul texnika universiteti)

Muratbek Bagila Kurmanbekkizi (Qozog‘iston, K.Jubanov nomidagi Aqto‘be viloyat universiteti)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Raupova Laylo Raximovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Elov Botir Boltayevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Jo‘raqo‘ziyev Nodir Imomqo‘ziyevich (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna (Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti)

TAHRIR HAY’ATI

Eshref Adali

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich

Raupova Laylo Raximovna

Elov Botir Boltayevich

Xamroyeva Shahlo Mirdjonovna



4-sho'ba. O'ZBEK TILINING FORMAL GRAMMATIKASINI YARATISH MUAMMOLARI

TOG'AYEVA Dilnoza - MORFEMALARING FONETIK	235
XUSUSIYATLARI (KELISHIK QO'SHIMCHALARI MISOLIDA)	
TO'RAYERVA Dildora Anvarovna, BURXONOV Javodbek	
Azimjonovich - ANONIM SHAXSIY YOZISHMALAR	
EKSPERTIZASI	243
XOLMURATOVA Gulnoza Komiljon qizi - KORPUS ASOSIDA	
BAJARILADIGAN MASHQ VA TOPSHIRIQLAR TIZIMI	250
XONNAZAROV Elyor G'ofurovich -ZAMONLAR	
ANNOTATSIYASIDA GRAMMATIK SHAKLLARNING	
AHAMİYATI	256
XURRAMOVA Zarnigor Jo'raqulovna - LEKSIKOGRAFIK	
MANBALARDA QISQARTMALARNING AMALIY AHAMIYATI	265
YAKUBOVA Dilafroz Tog'oymurod qizi, QULTO'RAYERVA	
Sarvinoz Bahodir qizi, UMURQULOV Bekro'lat Normurodovich -	
LINGVISTIK KORPUSDA MA'LUMOTLARNI	
RASMIYLASHTIRISH	268
ABEZOV Сухроб Собирович - О КОРПУСНОЙ ЛИНГВИСТИКЕ, ТРУДНОСТЯХ ПЕРЕВОДА И ПРИНЦИПАХ ОРГАНИЗАЦИИ ПАРАЛЛЕЛЬНЫХ КОРПУСОВ ТЕКСТОВ	275
НОРҚЎЗИЕВ Жамшид - ЎЗБЕК ТИЛИ ХРОНОНИМЛАР ЛУГАТИНИ МИЛЛИЙ ТИЛ КОРПУСИГА МОСЛАШНИНГ ЛЕКСИКОГРАФИК ХУСУСИЯТЛАРИ	281
ЖЎРАЕВА Нилуфар Шухрат қизи, ШАРОПОВА Сафия Бегмат қизи - ПАРАЛЛЕЛ КОРПУС ТУЗИШ МУАММОЛАРИ	286



ТУРДИБЕКОВ Мўмин - ТОПОНИМИКАНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ	293
РАХИМОВА С.Ж. - ИБОРАЛАРДА КЎП МАЪНОЛИЛИК ШАКЛЛАРИ	298
ҲАСАНОВ Абдуманнон Мажидович - ТИЛДАГИ БЎШЛИҚЛАР ВА УЛАРНИ ТЎЛДИРИШ ЗАРУРАТИ	303
СУЛТАНОВА Шахноза - О РАЗВИТИИ ГРАММАТИЧЕСКИХ ТЕРМИНОВ	308
НО'JAMBERDIYEVA Dildora - O'ZBEK AYOLLARI NUTQIDA QARG'ISH SO'ZLARNING QO'LLANISHI	315
МЎЙДИНОВ Қодиржон - ЎЗБЕК ТИЛИНИНГ МИЛЛИЙ КОРПУСИДА ЮРИДИК ТЕРМИНЛАРНИНГ БЕРИЛИШИГА ДОИР	319
ТУРДАЛИЕВА Дилфуза Солоҳидиновна - ПАРЕМИК БИРЛИКЛАРНИНГ ЭМОЦИОНАЛ-ЭКСПРЕССИВ ЖИҲАТЛАРИ	324
ТУРДИМУРОДОВ Сирожиддин Эшқобилович - ЎЗБЕК ТИЛИДА ЭВФЕМИК ГРАДУОНИМИЯ	327
МУРТАЗАЕВ Аброр - МУАЛЛИФЛИК ҲУҚУҚИНИ АНИҚЛАШДА ЛИНГВИСТИК ЭКСПЕРТИЗАСИНИНГ АҲАМИЯТИ	332
ҲАМИДОВА Дурдана - ИНГЛИЗ ВА ЎЗБЕК ТИЛЛАРИДАГИ ИҚТИСОДИЙ ТЕРМИНЛАРНИНГ ЛЕКСИКОГАРФИК ҚИЁСИ МУАММО ВА ЕЧИМЛАР	338
TANGIROVA Shaxnoza Xusniddin qizi - LEARNER IDENTITY AND LITERACY	345



Б.Қ.Мұратбек,Ә.Ә Әуесхан - ҚАЗАҚ ПОЭЗИЯСЫНЫҢ РЕСМИЛІГІ ЖӘНЕ ҚАЗАҚ ӘДЕБИ ТІЛІНІҢ ТАРИХЫ	346
МӘСЕЛЕЛЕРІ	
Norbekova Madina Shuxrat qizi - O'ZBEK TILINING TA'LIMIY KORPUSIGA ALOQADOR HODISALAR	356
D.X. Tashpulatova - PARALLEL KORPUSNING TERMINOLOGIYA SOHASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI	364
Muhiddinova Gulchiroy - TIL TA'LIMIDA TERMINLAR KORPUSIDAN FOYDALANISHNING AFZALLIKLARI	371
Sabirova E'zoza Shuhrat qizi - "O'ZBEK TILINING IZOHLI LUG'ATI"GA SO'Z TANLASH XUSUSIDA	375



PARALLEL KORPUSNING TERMINOLOGIYA SOHASI RIVOJIDA TUTGAN O'RNI

D.X. Tashpulatova*

Korpus elektron holda saqlanadigan ma'lum til birliklaridir. U turli vaziyatlarda tildan qanday foydalanish haqida juda katta ma'lumot beradi. Parallel korpus – bir mavzuga oid ikki tildagi matnli korpusdir. Ushbu korpusning tarkibiy tuzilmasi uning maqsadlari bilan belgilanadi:

- a) tarjimalari keltirilgan an'anaviy matn ko'rinishida;
- b) idrok etish va taqqoslash uchun qulayroq bo'lgan jadvalli "oyna" shaklida;
- c) ma'lumotlar bazasi shaklida.

Parallel korpusning qimmati uning hajmi va tillarning miqdori bilan belgilanadi. Parallel korpuslarning bugungi kunda ikki tilli, uch tilli va ko'p tilli ishlash texnologiyalari yaratilgan. Parallel korpuslar bir tilli, ikki tilli, uch tilli yoki ko'p tilli bo'lishi mumkin. Bir tildagi parallel korpusda muayyan tildagi matnning dialektal variantlari yoki muayyan sotsiumga tegishli kishilar nutqi u yoki bu matnda qanday qilib qo'llanganligi ifodalanadi.

Ikki tildagi parallel korpuslarni V.Zaharov ikki guruhga shartli ravishda ajratadi:

1. Bir mavzuga oid ikki tildagi matnli korpus (parallel corpora);
2. Bir-birining aynan tarjimasi bo'lgan matnli korpus (translation corpora).

Birinchi turdag'i korpus ma'lum bir tarjimaning turli aspektini o'rganish uchun qo'llaniladi. U, o'z navbatida, yana ikki turga bo'linadi. Bu moslangan (aligned) va moslanmagan (not aligned) korpusdir. "Moslangan" atamasi korpusda tarjima birliklari orasida bir-birini taqozo etuvchi aniq aloqa mavjudligini bildiradi. Bunday korpusdan u yoki bu gapning qanday tarjima qilinganini darrov topamiz. Bu turdag'i korpus tarjimon

*Toshkent Tibbiyot Akademiyasi O'zbek va xorijiy tillar kafedrasini ingliz tili o'qituvechisi



uchun ahamiyatli, chunki unda noyob resurs – “tarjima xotira”si (translation memory) mavjud²¹. “Moslanmagan” korpus (qiyosiy korpus)ning vazifasi matnni uning tarjimasi bilan moslashtirish, bir birlikning tarjimada qaysi birlikka to‘g‘ri kelishini ko‘rsatib turishdan iborat. To‘g‘rilash avtomatik ravishda yoki qo‘lda bajarilishi mumkin. Birinchi usul oson, lekin xatolari ko‘p. Masalan, tarjima jarayonida sodda gap qo‘shma gap shaklida berilishi mumkin. Bunday paytda qaysi qurilish original ekanligini aniqlash qiyin bo‘ladi. Ko‘p tilli moslashtirilgan korpus namunasi sifatida Yevropa Ittifoqining Acquis Communautaire ma’lumotlar bazasini keltirishimiz mumkin. Ikkinci xildagi korpus – tarjima korpusi (translation corpora) deb atalib, ayni bir fikrning turli tildagi ifodasini o‘rganish uchun muhim. Acquis Communautaire dunyodagi eng katta parallel korpus bo‘lib, muhim jihatni bu korpusdan foydalanishning bepulligi va multi-eston, sloven-fin kabi kam uchraydigan tillar juftligining mavjudligi bilan baholanadi. Yevropa Parlamentining 11 ta tilda ochiq korpusi EUROPARL²², Kanada parlamenti yig‘ini (ingliz-fransuz) matnlari korpusi ham shu turdagiligi korpus sirasiga kiradi. Tilni qiyosiy aspektida o‘rganishda ingliz-portugal parallel matnlardan tuzilgan COMPARA korpusini keltirish o‘rinli. Negaki har ikki tilda qo‘llanilgan parallel konkordanslar yordamida tilda uchraydigan lingvistik o‘zgarishlarni kuzatish, tahili qilish va baholash imkoniyati yaratiladi. Quyida biz rus mumtoz asarlari parallel korpusini yaratish, ularni ingliz tiliga tarjima qilish, bu jarayonda yuzaga keladigan muammolar bo‘yicha S.B.Potemkinning fikrlarini keltiramiz. Olim tiliga tarjima qilish korpus mutaxassisidan rus mumtoz adabiyoti va uning parallel korpus yaratish ishini matnni tanlash tamoyillarini ishlab chiqishdan boshlaydi. S.B.Potemkinning fikriga ko‘ra, XIX

²¹ Хамроева И.М. Корпус лингвистикаси атамаларининг қисқача изоҳли луғати. – Т.: Globe Edit, 2020. – 96 б.

²² <http://www.isi.edu/~koehn/publications/europarl/>



asrning buyuk ijodkorlari tomonidan yaratilgan zamonaviy rus tilida leksik, grammatic mohiyat saqlanib qolgan bo'lishiga qaramay, ba'zi hollarda adabiy me'yordan chetga chiqish kuzatiladi. Chet ellik talabaga rus tilini o'rgatish, chet el adabiyotini rus yetuk tarjimonlar tomonidan amalga oshirilgan tarjimalarni o'rganishni talab etadi. Rus tiliga bo'lgan qiziqish XIX asr oxiri va yigirmanchi asrning boshlarida paydo bo'lgan, hozirda rus tilini o'rganishga, rus mumtoz adabiyotini chet tiliga tarjima qilishga bo'lgan qiziqish tobora ortib bormoqda. Rus klassiklari: N.V.Gogolning "Peterburg yangiliklari", F.M.Dostoyevskiyning "Jinoyat va jazo", A.P.Chexovning Konstans Garnett tomonidan tarjima qilingan hikoyalarining nisbatan eski tarjimasining elektron shakli bizning Rus-ingliz parallel korpusimizni yaratish uchun material bo'lib xizmat qildi. Demak, muallif matnni tanlashda tayyor tarjima asarlarning elektron shakliga tayanib ish ko'rgan. Bu tajribalar o'zbek tilida parallel korpuslar yaratish uchun qo'llanma vazifasini bajaradi. Bugungi kunda o'zbek tilshunosligida o'zbek-ingliz parallel korpusining nazariy asoslarini yaratish yuzasidan B.Mengliyev, R.Karimov²³larning bir nechta ilmiy ishlari chop etilgan.

Parallel korpuslar tarjimashunoslikda muhim manba hisoblanadi. Parallel matnlar asosida korpus yaratish u darajada oson emas. Chunki ikki tilning o'zaro mos matn fragmentlariga ko'ra juftlanadi. Ushbu masalani avtomatik tarzda hal qilish uchun turli metodlar ishlab chiqilgan, buning uchun ikki tildagi matndagi grammatic konstruksiyalar (gaplar va so'z birikmali), so'zlar muvofiqlashtiriladi. A.V. Zubov va

²³ Karimov R.A. Ўзбек-инглиз параллел корпуси матнларини лингвистик теглаш муаммолари./илмий мақола, Сўз санъати. – Тошкент, 2021; Mengliyev B.R., Karimov R.A. Theoretical fundamentals of Uzbek-english parallel corpus./ilmiy maqola, Journal of Critical Reviews, 2020; Karimov R.A., Mengliyev B.R. The Role of the Parallel Corpus in Linguistics, the Importance and the Possibilities of Interpretation./ilmiy maqola, International Journal of Engineering and Advanced Technology, 2019



I.I. Zubovalarning darsligida jumlalar darajasidagi moslashtirish orqali foydalanish mumkin. Ushbu moslashtirish olti xil usulda amalga oshirilishi mumkin²⁴:

- 1) asliyatdagi bir jumla ikkinchi tilga ham bir jumla tarzida tarjima qilinishi;
- 2) asliyatdagi ikkita jumla ikkinchi tilga bir jumla tarzida tarjima qilinishi;
- 3) asliyatdagi bir jumla ikkinchi tilga ikkita jumla qilib tarjima qilinishi;
- 4) asliyatdagi ikkita jumla ikkinchi tilga ham ikkita jumla tarzida tarjima qilinishi;
- 5) asliyatdagi jumla ikkinchi tilga tarjima qilinmasligi;
- 6) asliyatdagi matnning tarjima qilinadigan tilda mos ekvivalentini mavjud emasligi.

Parallel matnlarning mos juftliklarini tuzish uchun inson tomonidan tahrir qilingan matnlar kiritilib, lug'at orqali matnda uchragan segment birliklarga qarab avtomatik tarzda tarjima birliklari aniqlanadi. Buning uchun ikki tilga mos leksik va grammatik jihatdan ishlab chiqilgan mos variantlar lug'atga kiritilgan bo'lishi kerak. Parallel korpuslar quyidagi maqsadlarda qo'llanilishi mumkin²⁵:

- 1) ikki tilli yoki ko'p tilli tarjima lug'atlarni tuzishda;
- 2) mashina tarjima tizimlari uchun lug'at yaratish va uni doimiy tarzida to'ldirib borish;
- 3) kontekstda uchraydigan ko'p ma'noli so'zlarni kompyuter analizi orqali leksik birliklarni polisemiyaga oidligini aniqlash;
- 4) matndagi terminologik va frazeologik birliklarni tarjima qilish;
- 5) korpusdan foydalangan holda ularning mos variantlaridan foydalanib kompyuter xotirasi usuli orqali mashina tarjimasi tizimi uchun to'liq avtomatik tarjimani amalga oshirish.

Leksikani avtomatik tasniflash matnni avtomatik tushunish uchun asosiy

²⁴ Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика /Учебник. – Санкт-Петербург, 2013. - 20 с.

²⁵ Захаров В.П., Богданова С.Ю. Корпусная лингвистика /Учебник. – Санкт-Петербург, 2013. - 21 с.



protseduralardan biridir²⁶. Parallel korpuslar yordamida so'z va so'z birikmalarning o'zaro valentliklarini aniqlash bu muayyan guruhga kiruvchi leksik-semantik guruhdagi so'zlarning semantik maydonini aniqlash, qolaversa, mashina tarjimasi uchun tarjima sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Parallel korpus tarkibiga kirgan tillar terminologiyasini uyg'unlashtirish uchun xizmat qiluvchi murakkab bilim va ma'lumotlar bazasi bo'lib, uni tahlil qilish asosida terminologiyani qiyosiy o'rganish quyidagilarni yaratish uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

- ikki tilli lug'at tizimlari,
- predmet sohasining terminologik ma'lumotlar bazasi.

Qiyosiy tahlil parallel matnlar korpusi bilan bog'liq holda terminologiyani lingvistik tadqiq etishning samarali usuli hamda terminologik tizimlar doirasida atamalarni uyg'unlashtirishga imkon beradi. Bu jarayonda parallel matn va parallel matnlarni moslashtirish tushunchalari asosiy rol o'ynaydi. Parallel matn (bittext) – bu bitta tilda va boshqa tilda tarjimasi havola etilgan matn. Parallel matnlarni moslashtirish esa parallel matnlar o'rtasidagi ma'nosi o'zaro teng keladigan jumlalarni aniqlash demakdir. Parallel korpusni jumla darajasida moslashtirish lingvistik tadqiqotlarning turli jihatlari uchun zaruriy shartdir.

Parallel matnlar korpusini har tomonlama terminografik tahlil qilish, odatda, ikkita mustaqil usulda amalga oshiriladi:

- avtomatik matnni qayta ishlash vositalaridan foydalangan holda;
- qo'lda.

Parallel matnlar korpusini tahlil qilishning ushbu usullaridan birinchisi yaratishni o'z ichiga oladi:

- har bir alohida korpusning chastota va alfavit-chastota lug'atlari;
- har bir alohida korpus uchun konkordanslar yaratish;

²⁶ Беляева Л.Н. Лексикографический потенциал параллельного корпуса текстов // Труды международной конференции "Корпусная лингвистика—2004". — СПб., 2004. — 55-64 с.



c) qabul qilingan lug'atlar va matnlarning ishchi mashina tarjimasi.

Ikkinci usul bosqichlar ketma-ketligiga qat'iy rioya qilishni talab qiladi:

- manba matnlarini parchalash;
- matnlarni abzaslar va jumlalar darajasida moslashtirish;
- parchalarni so'zlar va iboralar darajasida moslashtirish;
- parchalarni taqqoslanadigan parchalar darajasida moslashtirish;
- olingan natijalarning leksik-semantik tahlili.

Yuqoridagi bosqichlarni izchil amalga oshirish parallel matnlar korpusidagi til juftliklarida atamalarni va barqaror terminologik iboralarni aniqlashga imkon beradi.

Dunyo tillarini qamrab olgan parallel korpusning ahamiyati turkiy tillar mushtarak korpusi tuzish masalasining nechog'lik dolzarbligini ko'rsatib turibdi. Turkiy tillar mushtarak korpusi matnshunoslik, qiyosiy tilshunoslik, tarjima nazariyasi, adabiyotshunoslik, qarindosh tillararo munosabatlar, til leksikasining boyish manbalarini o'rganish vositasi sifatida xizmat qilishi bilan ahamiyatli. Bunday korpusning yaratilishi turkiy tillar oilasiga mansub tillarning rivojlanishini ta'minlashi bilan birga, foydalanuvchilari kam sonli turkiy tillarni asrab qolish garovi hamdir. Turkiy tillarning mushtarak (parallel) korpusi turkiy tillarning mushtarak yodgorliklari – Avesto, O'rxun-Enasoy obidalari, turkiy xalqlar eposlarini turkiyzabon xalq farzandlariga o'rgatishning eng zamonaviy ta'lif vositasi sifatida xizmat qilishi tabiiy²⁷.

Yuqoridagi fikrlarni umumlashtirgan holda, birinchi bob yuzasidan quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

- Til ta'limalda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining eng samarali elektron manbalari sifatida elektron lug'at, o'rganilayotgan tilda multimedia materiali, ixtisoslashtirilgan o'quv resursi, elektron aloqa vositasi farqlanadi. Shunday vositalar sirasidan podcast, veb-kvest hamda ta'limiylar korpus, terminologik korpus, parallel

²⁷ Гарабик Р., Захаров В.П. Параллельный русско-словацкий корпус // Труды международной конференции "Корпусная лингвистика—2006". — СПб., 2006. — 81-82 е.



korpus ham o'ren olishi mumkin. Buning uchun o'zbek tili ta'limiy korpusi, terminologik korpusini hamda parallel korpus tuzish, ulardan ona tili hamda o'zbek tilini xorijiy til sifatida o'qitishda foydalanishga erishish o'zbek lingvovidaktikasini yangi pog'onaga ko'taradi; jahon ta'lim standartlari darajasiga olib chiqishga muayyan darajada xizmat qiladi.

– Ko'p tilli tizimlar sifatida terminologik ma'lumot bazalari ma'lumotlar bilan ishslash davomida saqlanadigan kerakli asosiy tilni va maqsadli tilni tanlashga imkon beradi. Bu xususiyati ularni ko'p tilli lug'atlarga yaqinlashtiradi, ammo ulardan farqli o'laroq, ma'lumotlar banklarida istalgan vaqtida ma'lumotning ko'rsatilgan qismini o'zgartirish mumkin.

Adabiyotlar:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Parallel_text
2. <https://www.google.com/search?q=PARALLEL+TEXTS+EXAMPLES>
3. Abdurahmonova N, Urdishev K. Corpus based teaching Uzbek as a foreign language. Journal of foreign language teaching and applied linguistics (J-FLTAL).2019;6(1-2019):131-7.
4. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2020. — 234 с
5. Захаров В. П., Богданова С. Ю. Корпусная лингвистика: учебник. 3-е изд., перераб. — СПб.: Изд-во С.-Петерб. ун-та, 2020. — 234 с
6. Ruziyev, K. B. (2020). PARALLEL AND COMPARABLE CORPORA. Актуальные научные исследования в современном мире, (11-12), 43-46.